

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**“YANGI O‘ZBEKISTON TILSHUNOSLIGIDA
LINGVOKULTUROLOGIYA, PRAGMALINGVISTIKA,
NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA LINGVOFOLKLORISTIKA
SOHALARINING DOLZARB MUAMMOLARI”**

(Filologiya fanlari doktori, professor R.R. Bobokalonov tavalludining 65 yilligiga bag' ishlanadi)

**XALQARO ILMIY-NAZARIY ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI**

©Buxoro davlat universiteti
©Fransuz filologiyasi kafedrası

Buxoro-2024

SUMMARY

MUNDARIJA

СОДЕРЖАНИЕ

<i>Avant-propos Foreword Vorwort Пролог Prefazione</i>	12
<i>Khamidov Obidjon Khafizovich. Entre France et Ouzbékistan, perspective de la coopération dans l’enseignement supérieur</i>	17
<i>Rasulov T.H. La persévérance dans la connaissance et le dévouement à l’éducation ouvrent les portes de l’avenir avec sagesse et érudition</i>	21
<i>Ataboyev N.B. The pursuit of knowledge, dedication to teaching, and unwavering commitment to academic excellence define the legacy of Bobokalonov Ramazon Rajabovich</i>	22
1-SHO‘BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK MASALALARI	23
<i>Alex Cormanski. Fondements linguistiques et culturels des jeux didactiques modernes</i>	24
<i>Bobokalonov O.O. Modern scientific research directions and perspectives of linguoculturology</i>	30
<i>Bobokalonov P.R. O‘zbekcha-fransuzcha kanonik modeli so‘z-gaplarning differentsiyasi</i>	39
<i>Bobokalonov R.R. & Istamova G.I. Substansial tilshunoslikda sodda gap qurilishi talqini</i>	45
<i>Davletov K.K. Fransuz tilida “peur” konseptiga kiruvchi fe’llar</i>	51
<i>Egamberdiyev J.J. & Egamberdiyeva I.A. Metaphor is a mirror of language, culture and spirituality</i>	56
<i>Fayzulloyev M.B. & Raximov M.M. “Yo‘l” konseptosferasining genezisi va rivoji</i>	64
<i>Khamidova M.H. Expression de métonymes dans des formes et des styles traditionnels</i>	68
<i>Hojiyeva G.S. & Abduraximova M.D. The role of art terminology in Linguistics</i>	74
<i>Hojiyeva G.S. & Shirinova G.L. Fransuz tilidagi iboralarning leksik-semantik xususiyatlari</i>	79
<i>Jo‘rayeva M.M. & Sodiqov M.S. Fransuz va o‘zbek tillari leksik tejankorlik hamda ortiqchalik xususiyatlari</i>	83
<i>Jo‘rayeva M.M. Fransuz gazeta sarlavhalarida intertekstuallik</i>	87
<i>Jo‘rayeva M.M. & Islomova S.Z. Fransuz gazeta sarlavhalarining asosiy turlari</i>	92
<i>Juraeva N.Sh. & Akhmadova Sh.O. The phenomenon of taboo in French linguistics</i>	97
<i>Juraeva N.Sh. & Khamidova O.H. The phenomenon of dysphemism in French linguistics</i>	102
<i>Juraeva N.Sh. & Rakhmatova F.A. Semantic features of euphemisms in French</i>	108
<i>Kamolova S.J. Le caractère lexicque et sémantique des noms propres français</i>	112
<i>Koci B. & Bobokalonov O.O. Les fondements et les évolutions de la linguistique française: perspectives historiques, géographiques et contemporaines</i>	118
<i>Ламуфова К. Трактовка категории побудительной модальности в разно-системных языках</i>	125
<i>Mamadaliev A. Exploring the role of language in shaping cultural identity: a linguoculturological perspective</i>	129
<i>Nakhracheva G.L. Verbal metaphors of pain in the Ob-Ugric languages</i>	137
<i>Narzoullaeva D.B. & Fayzoullaeva M.I. Histoire de la recherche théolinguistique</i>	146
<i>Narzoullaeva D.B. & Narzoullaeva N.N. Développement de la théolinguistique en Occident</i>	150
<i>Nasimova F.S. Lexical-semantic characteristics of French culinary terms</i>	155
<i>Nasimova F. & Ahmadov Q. Tilshunoslik yangi sohalariga oid dolzarb muammolar tahlili</i>	160
<i>Nasimova F.S. & Haydarova N.J. Fransuz va o‘zbek tillarida pazandachilik terminlari ishlatilishining leksik-semantik usullari</i>	164

FRANSUZ TILIDAGI IBORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI



Bukhara, Uzbekistan



Hojiyeva Gulchehra Salimovna

f.f.f.d. (PhD), dotsent

Fransuz filologiyasi kafedrası

Buxoro davlat universiteti

✉ g.s.hojiyeva@buxdu.uz

 <https://orcid.org/0000-0001-8686-7614>

 <https://scholar.google.com/citations?hl=fr&user=LFhC4PMAAAAJ>



Shirinova Gulsanam Luqmon qizi

Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz)

ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Fransuz filologiyasi kafedrası

Xorijiy tillar fakulteti

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fransuz tilida frazeologiyaning tilshunoslikda tutgan o'rni, bu sohada ilmiy tadqiqotlar, frazeologik birliklarning semantik va sintaktik tuzilishiga ko'ra turlari ularning o'zbek tilidagi tarjimalari asosida o'xshash va farqli jihatlari ko'ra qiyosiy-chog'ishtirma tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologizm, ibora, frazeologik birlik, sintetik guruh, oraliq guruh, analitik guruh.

Аннотация: В данной статье сравниваются и анализируются роль фразеологии французского языка в лингвистике, научные исследования в этой области, типы фразеологизмов по их семантической и синтаксической структуре, на основе их переводов на узбекский язык по признаку их сходства и различия.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, словосочетание, фразеологическая единица, синтетическая группа, промежуточная группа, аналитическая группа.

Abstract: In this article, the role of phraseology in French language in linguistics, scientific research in this field, the types of phraseological units according to their semantic and syntactic structure, based on their translations in Uzbek language, are compared and analyzed according to their similarities and differences.

Key words: Phraseology, phraseologism, phrase, phraseological unit, Synthetic group, Intermediate group, analytical group.

Kirish

Ma'lumki, “frazeologiya” soʻzi grekcha “*phrasis*” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, ifodalash, nutq normasi, “*logos*” tushuncha, taʼlimot maʼnolarini ifodalaydi. Lingvistik termin sifatida u tilshunoslikning alohida bir boʻlimini tashkil etib, ushbu boʻlim turgʻun soʻz birikmalarini oʻrganadi. Tilshunoslikda ular *frazeologizmlar* yoki *frazeologik birliklar* deb ataladi va biror tilga tegishli boʻlgan iboralarning barchasini ifodalash uchun xizmat qiladi [8].

Fanda frazeologiya sohasida dunyo olimlari katta yutuqlarni qoʻlga kiritgan va hozir ham koʻpgina yangiliklar amalga oshirilmoqda [3]. Jumladan, fransuz tilshunosligida Sh.Balli (Французская стилистика. М., ИИЛ, 1961), rus tilshunoslaridan G.A. Nazaryan (Фразеология современного французского языка. ВШ, 1987.), V.G. Gak (Беседы о французский слове. М., Просвещение, 1966.) N.M. Shanskiy (Фразеология современного русского языка. М., ВШ, 1969.), V.V. Vinogradov (Основные фразеологических единиц в русском языке. М., 1972.) kabilar, shuningdek, oʻzbek tilshunosligida A.Narziqulov (К вопросу художественного перевода с французского на узбекский язык. Т.,Фан,1974), Sh.Rahmatullayev (Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. – Т.: Oʻqituvchi, 1978), Gʻ. T. Salomov (Tarjima nazariyasi asoslari. Т.: Oʻqituvchi, 1983), A.E. Mamatov (Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari Т., 1991) hamda A.A. Abduazizovlar (Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Т., Sharq, 2010) katta izlanishlar olib borib, soha rivojiga oʻzining munosib hissasini qoʻshdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Shuningdek, oʻzbek tilshunoslaridan bugungi kunda F.A. Badalov, N.N. Suvonova, Sh.S. Imyaminova, G.E. Hakimovalar frazeologiyani turli qirralarini koʻrsatib beruvchi ilmiy ishlarni amalga oshirdilar [1;5;4;2].

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq soʻzlarning turgʻun birikmasidir. Frazeologik birliklarning tarkibida nechta soʻz ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy maʼnoga birlashadi va emotsional-ekspressiv maʼnoni ifodalaydi. Agar erkin soʻz birikmalari nutq davomida yaratilsa, turgʻun soʻz birikmalari, yaʼni iboralar nutq davomida yaratilmay, tayyor holda qoʻllaniladi. Ular baʼzan soʻzga, soʻz birikmasiga va baʼzan butun bir gapga teng maʼnoni ifodalashi mumkin. Shunda kelib chiqib, fanda frazeologizmlarni semantik va sintaktik jihatlariga koʻra tasniflash kuzatiladi.

Semantik tasnif asosida ham fransuz tili frazeologik birliklarini 3 ta asosiy guruhga boʻlish mumkin [6]:

1. Sintetik guruh (frazeologik chatishma) oʻzini tashkil qiluvchi boʻlaklarning eng yuqori qoʻshilish darajasi bilan xarakterlanadi. Unda shuningdek, ayrim soʻzlarning maʼnosi mustaqil mavjudlikdan mahrum boʻlib, birgalikda ajratib boʻlmaydigan semantik (maʼno) butunlikni tashkil etadi, yaʼni frazeologik

chatishmaning ma’nosi uni tashkil etgan bo‘laklarning birligidan kelib chiqadi.

Masalan, prendre en grippe (*syn.* avoir en grippe; prendre en aversion) [9]– yomon ko‘rmoq, g‘ashiga tegmoq, qonini (zardasini) qaynatmoq.

2. Oraliq guruh (sintetik-analitik birikma – frazeologik qo‘shilma). Bunda uni tashkil etuvchi bo‘laklarning motivatsiyasini (o‘xshashligini) farqlash kerak. Bu turdagi FBlar V.Vinogradov klassifikatsiyasidagi frazeologik birlashmaga yaqin.

Masalan, tomber amoureux (*syn.* avoir le coup de foudre; avoir le beguin) [9]– oshiq bo‘lmoq, oshig‘u beqaror bo‘lmoq.

3. Analitik guruh (frazeologik butunlik)ni tashkil qiluvchi bo‘laklardan shu iboraning ma’nosini aniqlab olish mumkin.

Masalan, rire de bon coeur (*se taper des barres*) [9] – miyig‘ida kulmoq, soxta tabassum qilmoq.

Frazeologizmlarni tashkil etuvchi bo‘laklarning qo‘shilish darajasiga asoslangan semantik tasnifdan tashqari, turg‘un so‘z birikmalari (iboralar)ni tuzilishiga ko‘ra ham tahlil qilish mumkin.

Natijalar va muhokamalar

Sintaktik tuzilishiga ko‘ra tasniflashda FBlarni quyidagilarga ajratib ko‘rsatiladi [7;5]:

1. Otli iboralar:

- *coup de main* – yordam, madad;
- *travail noir* - xo‘ja ko‘rsinga, naridan-beri, pala-partish qilingan ish;

2. Fe‘lli iboralar:

- *voir clair* – aniq-tiniq ko‘rmoq; tushunib olmoq.
- *sourire jaune* - sun‘iy, zo‘rma-zo‘raki kulmoq; masxara qilmoq;

3. Olmoshli iboralar:

- *tout le monde* – hamma, butun borliq;
- *tout moi* – butun vujudim (borlig‘im);

4. Ravishli iboralar:

- *à belles dents* – to‘yguncha, astoydil;
- *boulets rouges* – beshavqat, ayovsiz, rahm-shavqat qilmay;

5. Predlogli yoki bog‘lovchili iboralar:

- *le dé en est jeté* – masala hal; gap tomom; bo‘lari bo‘ldi; boshqa gap yo‘q;
- *marquée à l’A* – oliy navli, a‘lo; yuqori sifatli, asl.

Frazeologizmlarning sintaktik xususiyatiga ko‘ra turlari FBlarning barcha jihatlarini o‘zida jamlagan bo‘lib, yuqoridagi misollar bunga to‘la asos bo‘la oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda:

- ✓ FBlarning asosiy belgisi – bu ularning ko‘chma ma’noga ega ekanligi.
- ✓ FBlar tilshunoslikda bir necha nomlar bilan, xususan, frazeologizm, frazeologik yoki turg‘un ibora, frazeologik birikma va ibora nomlari bilan ataladi.

- ✓ FBlarning tarkibida nechta so‘z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma’noga birlashadi va emotsional-ekspressiv ma’noni ifodalaydi.
- ✓ har bir kriteriyaga mansub FBlar alohida o‘ziga xoslikka ega, ya’ni ular ot+ot (ot+sifat), fe’l+sifat, olmosh+ot (olmosh+olmosh), predlog+sifat+ot, predlog+fe’l kabi yasaliş formulalarini hosil qilgan.
- ✓ Frazelogizmlar yasalişida *à, en, de* predloglari keng qo‘llaniladi.
- ✓ Fransuz tilida gap qurilişida iboralar ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol vazifalarini bajarib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badalov F.A., Frazelogik birliklarning semantik xususiyatlarini o‘rganishdagi ba’zi-bir mulohazalar. Xalqaro simpozium materiallari. – Termiz. 2004.;
2. Bobokalonov, O., & Akhrorova, R. (2023). Shifonemas in phraseological units related to the period of youth. *Scientific journal of the Fergana State University*, (6-TOM), 44-44.
3. Bobokalonov, O. (2020). Linguo-Cultural Peculiarities of the Phraseological Units with Pharmacophytonyms Components. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 23(2), 232-235.
4. Hakimova G.E. Zoonomik komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari. Avtoref. fil.f.nom... 2008.
5. Hojjeva, Gulchehra. "Linguovoculary Properties Of Art Terms (On The Example Of French And Uzbek Languages)." (2021).
6. Hojiyeva G.S. Ranglar vositasida hosil bo‘lgan fransuz frazeologik birliklarining tarjimada aks ettirilishi. Mag. akam. dar. ol. un yozil. diss. – Toshkent, 2012. – B. 10-11.
7. Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. Mumtoz so‘z, Toshkent, 2011.
8. Suvonova N.N. Frazelogiyaning sistem-sath birligi sifatidagi talqini (fransuz tili materialida) fil.f.nom...diss. 2008.
9. Балли Ш. Французская стилистика. – Москва, ИИЛ, 1961, - С. 100-106.
10. Гак В.Г. “Французско-русский фразеологический словарь. В.Г.Гак и др./Под ред. Я.И.Рескера. – Москва, ГИИНС, 1963.;
11. Назарян Г.А. Фразеология современного французского языка. ВШ, 1987, с.5.
12. Рецкер Я.И. Французско-русский фразеологический словарь. – Москва, 1966, - С. 538.